



## **RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA ONA TILI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Muxtorova Lobar Abdimannabovna**

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası

Mudirasi dotsenti. (PhD)

**Chorshanbiyeva Mahliyo Sheraliyevna**

Termiz davlat pedagogika instituti

magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish natijasida ta'limning samaradorligini oshirish ko'zda tutiladi. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalaridan biri muammoli ta'lim texnologiyasidir. Muammoli o'qitish bu takomillashgan o'qitish texnologiyasidir. Hozirgi ta'lim tizimida samarador o'qitish texnologiyasi bu muammoli o'qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi. Quyida ushbu ta'lim texnologiyalarining afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** rivojlantirish o'qitish, maktab, ta'lim, texnologiya, fikrlash, o'qitish, manba, xususiyat, o'qitish, tarbiya, munosabat, tushuntirish, o'qituvchi, boshlang'ich sinf.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida o'tkazilayotgan tub islohotlarning mazmuni bugungi kunda ta'lim jarayonini loyihalashga yangicha yondashuv bilan boyib bormoqda. Ta'limga zamonaviy yondashuv ta'lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali boshqarish va qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Ta'lim tizimidagi sifat degan tushunchaga ma'lum vaqt oralig'ida tez sur'atlar bilan rivojlanib boruvchi tushuncha deyiladi. Ta'lim sifati, birinchi navbatda, o'quvchilarning ta'lim yutuqlariga, an'anaviy o'quv dasturlari va standartlarida islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan. Sifatning yana bir jihati shundaki, u o'rgatilgan va o'rganilgan narsalarning dolzarbligi bilan bog'liq. Tizim shaxslarning ehtiyojlari va talablariga mos kelishi kerak. Maktablar, o'quv markazlari va oliy o'quv yurtlarida olib borilayotgan ta'lim talabalarga ularning hayotini boyitishda foydali va mazmunli bo'lgan bilim va ma'lumotlar bilan ta'minlanishi kerak. "Samaralilik" atamasining ma'nosi kompetentsiya,



samaradorlik, samaradorlik va malakadir. Nafaqat ta'lim sohasida, balki har bir sohada shaxs o'z oldiga qo'yilgan vazifa va tadbirlarni amalga oshirishda samarali bo'lishni maqsad qiladi. Agar biror kishi o'z mehnat vazifalarini samarali bajarsa, u holda odamlar istalgan natijalarga erisha oladilar, institutsional maqsad va vazifalarga munosib tarzda erishadilar.

Ta'lim texnologiyasi tizim sifatida ko'rilganda, uning tuzilmasini tashkiliy funksional elementlar bo'yicha tasavvur etish mumkin. Ta'lim texnologiyasining tashkiliy elementlari - ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi, maqsad, natija, ta'lim mazmuni, o'qitish usullari, tashkiliy shakllari, vositalari, nazorat qilish va baholashdan iborat. Pedagogik jarayon o'quv maqsadini qo'yish bilan boshlanadi. Maqsad shunday aniq bo'lishi lozimki, uning vositasida ta'lim- tarbiya jarayonini qanday darajada amalga oshirilganligini aniqlash, berilgan vaqtda ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan didaktik jarayonni qurish imkonini bersin. Ta'lim texnologiyasining maqsadi o'rganilayotgan o'quv predmetining maqsadlaridan va mazmunidan, tarbiyaviy ta'siridan kelib chiqqan holda aniqlanadi hamda ta'lim maqsadiga mansub bo'ladi. Ta'lim mazmuni, o'quv materialiy quyidagilarda o'z aksini topadi: mazkur fanni o'qitish mazmunini o'zida aks ettirgan ta'lim texnologiyalari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarining matni, axborot manbalari. O'qitish usullari, vositalari va tashkiliy shakllari, ya'ni ta'lim oluvchiga pedagogik ta'sir etish texnikasi va qurollari, axborot mazmuni va didaktik maqsadlarga uyg'un holda tanlab olinadi hamda amaliyotga tatbiq etiladi. Shuningdek, bunda ta'lim oluvchilarning yosh, fiziologik xususiyatlari, ta'lim muassasalarining moddiy jihozlanishi, ijtimoiy muhit ham hisobga olinadi. 19 Ta'lim beruvchi Ta'lim mazmuni Ta'lim shakllari usullari va vositalari Ta'lim maqsadi Ta'lim natijasi Nazorat va Ta'lim oluvchi Ta'lim texnologiyalari tizim sifatida Nazorat qilish, baholash usullari va vositalari: qo'yilgan maqsad va o'quv materiallari mazmuniga nisbatan tanlanadi. Agar qo'yilgan maqsad bilan olingan natija bir-biriga mos kelsa, pedagogik jarayon nihoyasiga yetadi. Bunda qo'yilgan maqsad bilan olingan natijaning to'liq mosligini ta'minlashni ko'rsatib o'tish zarur, chunki ular predmetning obyektiv muhim qonunlaridan kelib chiqadi. Lekin pedagogik faoliyat shaxsiy-subyektiv emotsional xarakterga egadir. U pedagogning shaxsiy- individual sifatlariga, ijodiy qobiliyatiga, mahoratiga, kasbiy-psixologik xususiyatlariga hamda ta'lim oluvchilarning shaxsiy- individual sifatlariga, intellektual, psixofiziologik, psixoemotsional va boshqa xususiyatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham uning natijasi variativ xarakterga ega bo'lishi mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, ko'rsatilgan pedagogik tuzilmaning biror elementi ham mavjud



bo'lmasa, unda pedagogik jarayon to'liq kechmaydi yoki ko'zlangan natijani to'liq bera olmaydi. Har qanday holda ham bunday pedagogik jarayondan ijobiy natija olish tasodifiy xarakterga ega bo'ladi. Ta'lim texnologiyasi haqida gap ketganda dahldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug'iladi: Muammoli o'qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lishi individual holat bo'lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi. O'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o'qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, ta'lim oluvchilar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, ularni yechimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o'zi yo'lga boshlaydi. Muammoli o'qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo'ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma'lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo'lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo'ladi, «gap nimada?» degan savol tug'iladi. Muammoli o'qitish samaradorligining to'rtta asosiy shartlari mavjud: - muammo mazmuniga qarab yetarli qiziqish uyg'otishni ta'minlash; - muammo yechimidagi har bir bosqichda paydo bo'ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta'minlash (ma'lum va noma'lumlar nisbatining maqbulligi); - muammoning yechimida olinadigan axborotni ta'lim oluvchilar uchun muhimligi; - pedagog va ta'lim oluvchi orasidagi munosabat xayrixohlik ruhida kechishi, ya'ni ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e'tiborsiz va rag'batsiz qolmasligi zarur. Shunday qilib, muammoli o'qitish, o'quv jarayonini tashkil yetishning shunday shakli, unda o'qituvchi boshchiligida muammoli vaziyat va bu vaziyatning yechilishidagi ta'lim oluvchilarning samarali mustaqil faoliyati yuzaga keltiriladi. Muammoli o'qitishni tashkil yetish natijasida ta'lim oluvchilarda kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar hamda fikrlash qobiliyatlarini o'stirishning ijodiy imkoniyatlari yuzaga keladi. Muammoli texnologiyani amalga oshirish uchun quyidagilarga rioya qilish kerak bo'ladi: - eng dolzarb, ahamiyatli vazifalarni tanlash; - (o'quv ishlarining barcha turlarida muammoli o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash; - muammoli o'qitishning yeng maqbul tizimini ishlab chiqish, darslik, o'quv va metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar yaratish; - shaxsiy yondashuv va o'qituvchi mahorati. **XULOSA:** Xulosa qilib aytish mumkinki, Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi o'qitish jarayonini samarali kechishini ta'minlash bilan birga ta'lim oluvchilarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini

rivojlantiradi. Ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishga nisbatan qo'yilayotgan ijtimoiy ta'lim oluvchilar o'qituvchilardan loyiha va muammoli ta'lim texnologiyalarini o'qitish jarayonida maqsadli, samarali qo'llashni talab etadi. Mazkur ta'lim texnologiyalarining mohiyatiga oid ma'lumotlar bilan tanishish malaka oshirish kurslari tinglovchilarining mavjud bilimlarini boyitish bilan birga amaliy ko'nikma, malakalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. SH.S.SHOYIMOVA, M.K.XOSHIMOVA, SH.R.MIRZAYEVA, M.M.QO'ZIBOYEVA .Ta'lim texnologiyalari – Darslik. – T.: «IJODPRINT», 2020.-310 bet.
2. Mahkamov U.B. Axloq-odob saboqlari. – T.: Fan, 1998. – 48 b. 2. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: Sharq, 2009. – 560 b.
3. Milliy istiqlol g'oyasi (asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar) Toshket-2002 y. 68 b.
4. Psixologiya i pedagogika. / Pod red. Radugina A.A. – Moskva: sentr, 2003. – 256
5. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M.M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedpgogik texnologiyalar. – T.: Nihol, 2013. - 277 b.
6. Satib-Aldiev A.A., Karimjonov A.A. Harbiy pedagogika. – T.: Sharq
7. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi and Feruza Hayitova Abdullayevna, "THE ROLE OF PICTURES IN THE FORMATION OF STUDENTS 'CREATIVE ABILITY IN LITERACY LESSONS", *IEJRD - International Multidisciplinary Journal*, vol. 6, no. 4, p. 3, Jul. 2021.
8. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi " Enhancing creativity in the process of developing studentso speech " The American Journal of Social Science and education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published Published: June 28, 2021 | <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03> Иссые06-24 IMPACT FACTOR 2021: 11. 857 OCLC – 1121105668 Pages: 140-143 Америка
9. [BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING AQLIY SALOHIYATINI HAMDA KREATIVLIGINI OSHIRISHDA MENTAL ARIFMETIKANING O'RNI](#)  
M Ziyaqulova, S Ashurova, N Toshpulatova - Development and innovations in science, 2023



10. Abdimannabovna, M. L. (2021). Possibilities of an Integrative Approach to the Formation of A Culture of Environmental Safety. *European Scholar Journal*, 2(11), 43-44.
11. Abdimannabovna, M. L. (2022). Opportunities for an Interdisciplinary Integrated Approach to Improving the Culture of Environmental Safety. *Eurasian Scientific Herald*, 7, 7-12..